

TALABALARNI SOHAVIY TERMINLAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYA YONDOSHUV MUAMMOLARI

Yuldasheva D. M.

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

Talabalarni sohaviy terminlar asosida kasbiy kompetensiya muammosi turli nuqtai nazaridan amalga oshirilishga nisbatan turli yondashuvlarni yuzaga keltiradi. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar taxsil oluvchilarni ta'lim subyektlari sifatida ko'rib chiqishsak. Hozirgi vaqtda nazariy jihatdan kompetentli yondashuv etarlicha ishlab chiqilgan, biroq kasbiy ta'lim amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ko'pgina uning qoidalari hali hisobga olinmagan. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan ta'lim-bu o'quvchilarga shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatda olingan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llashim konini beradigan kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim. Bunday ta'lim talabalarga mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish imkonini beradi. Tashabbuskorlik, kasbni ongli ravishda tanlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, sog'lom raqobat va umumbashariy ko'nikmalarni shakllantirish iborat.

Bugungi ta'lim talabaning oldiga tayyor bilimlarni emas, muammolarni qo'yadi. Bu muammolarni hal qilishga o'rganish shaxsni ta'lim jarayonidayoq kelgusi hayotga va kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Talabalarning kompetentligini shakllantirish bugungi kunda ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kompetentli ta'lim g'oyasi zamonaviy jamiyat tomonidan ta'limning natijasi qanday bo'lishi kerak va qanday bo'lishi talab qilinadi degan savolga javob berishi kerak. Kompetentli yondashuvni esa ta'lim sifatini ta'minlash va bu masalani an'anaviy yo'l bilan, ya'ni o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarini oshirish hisobiga olish muammoli holatdan chiqish sifatida talqin qilish mumkin. Kompetentli yondashuv talabalarga hayotda o'z o'rniga ega bo'lish, o'zini muntazam rivojlantirib borish uchun zarur sharoitlar yaratib beradi. Demak, kompetentli yondashuvning asosiy maqsadi, Dj.Raven ta'kidlaganidek, "Shaxsni shakllantirish uning qobiliyatlarini ochib berish, rivojlantirish va uning jamiyat hayotining barcha jabhalarida samarali ishlashini ta'minlashdan iborat." [1; 42-b.].

Kompetensiyalar tavsiflangan ko'plab tadqiqotlar orasida A.Xutorskoyning kompetentli yondashuvga oid ishlari ushbu sohada etakchi bo'lib kelmoqda. Olim tomonidan kompetensiyalarga bag'ishlangan yuzlab ilmiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, kompetensiyalarning to'liq tasnifi ishlab chiqilgan. Ushbu tasnif ko'plab ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun asos bo'lgan. A.Xutorskoy kompetensiyani tayanch, umumiy va xususiy kompetensiyalarga ajratib, ta'lim oluvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga doir tayanch kompetensiyalarning turlarini tadqiq qilgan [2; 58–64-b.]. Tayanch kompetensiyalar ta'lim oluvchida zarur axborotni izlab topish va undan foydalanish, jamoada ishlash, o'rganish

layoqatini shakllantirishni ko'zda tutadi [3; 15-b.]. Ularni 1-jadvalda asosida quyidagi kompetensiyalarni tariflari yoritildi (1-jadvalga qarang):

Tayanch kompetensiyalar 1-jadval.

№	Kompetensiya	Ta'riflari
1.	qadriyat-mazmun kompetensiyalari	shaxsning qadriyatlar nuqtai nazaridan qarashlari, uning atrofdagi dunyoni ko'rishi va idrok etishi, unda o'z o'rnini topishi, undagi roli va funksiyalari, harakatlarining maqsadi tushunishi, asoslab berish, qarorlar qabul qilishga oid layoqati demakdir.
2.	umummadaniy kompetensiyalar	bu faoliyatda ma'lum bilim va faoliyatga oid tajriba zarur bo'lgan hamda shaxs tomonidan to'liq idrok qilinadigan masalalar doirasini aks ettiradi.
3.	o'quv-bilish kompetensiyalari	mustaqil ravishda bilim olishga oid kompetensiyalar yig'indisi bo'lib, o'rganiladigan hayotiy ob'ektlar bilan bog'liq mantiqiy, unda uslubiy va umumiy ta'lim faoliyati elementlari mavjud.
4.	axborot kompetensiyalari	Bu haqiqiy ob'ektlar (televizor, pleer, telefon, faks, kompyuter, printer, modem, skaner) va axborot texnologiyalari (audio va video aloqa, media, elektron pochta, Internet) yordamida kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda kuzatish, tahlil qilish, ajratib olish, jamlash, o'zgartirish, saqlash va uzatish uchun mo'ljallangan.
5.	muloqot kompetensiyalari	turmush va faoliyatda zarur bo'lgan tillarni, atrofdagi va ma'lum bir masofa ortidagi odamlar hamda hodisalar bilan bog'lanish usullarini bilish, guruhda ishlash ko'nikmalariga shakllantirish, jamoada turli ijtimoiy rollarni bajarish layoqatidan iborat.
6.	ijtimoiy-mehnat kompetensiyalari	jamiyat faoliyati (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifalarini bajarish)da, ijtimoiy mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchining huquqlari)da, oilaviy munosabatlar va majburiyatlar sohasida, iqtisodiy va huquqiy masalalarda, kasbiy sohada o'z o'rnini topishga qaratilgan.
7.	komillik kompetensiyalari	shaxsning jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishi, o'z hissiyotlarini idora qilishi va o'z-o'ziga yordam berish usullarini egallashiga yo'naltirilgandir.

Ko'ramizki, A.Xutorskoy ta'riflagan tayanch kompetensiyalar uzviy bog'liq bo'lib, ularning yig'indisi insonning barkamolligini ta'minlaydi. Ushbu kompetensiyalarning rivojlanishida oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari hamda ta'lim muassasalari mas'ul ekanligi ayon bo'ladi. Shuningdek, A.Xutorskoy tasnifida **umumiy va xususiy kompetensiyalarga** ham qisqacha ta'rif berib ketiladi. Jumladan, **umumiy kompetensiyalar** turli sohalarning faktlari va tushunchalariga tayangan holda muammolarni hal qilish layoqati mavjudligini ko'rsatadi. **Xususiy kompetensiyalarni** esa A.Xutorskoy muayyan o'quv fani doirasida shakllantiriladigan, ya'ni fanni o'qitish jarayonida hosil bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi deb ta'riflaydi.

Uslubiy atamalar va tushunchalar lug'ati esatil ta'limi misollari bo'yicha xususiy kompetensiyaga ta'rif beradi: "til o'rganish jarayonida shakllanadigan va tilni bilishning ma'lum darajasini ko'rsatadigan xususiy kompetensiyalar, agarda o'rganilayotgan til kasbiy faoliyat vositasi bo'lsa, quyidagi yetakchi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi [4; 210-b.]."

Kasbiy kompetensiya tushunchasi kontsepsiya asosan talabaning o'ziga yuklangan vazifalarni va talablarga (mezonlarga) muvofiq bajara olishini anglatadi.

Bu esa talabalarda uning kasbiy kompetentligini aniqlaydigan bir qator sifatlar mavjud bo'lishi kerakligini anglatadi. Kasbiy sifatlarga faqatgina bilim, malaka va ko'nikmalar emas, tajriba ham kiradi. Bu esa tajriba malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish davomida yuzaga kelishi haqidagi fikrga olib keladi. Shu bilan birga, kompetensiya mehnat faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy kompetensiyalarning turli jihatlari tahlil qilingan. Jumladan, M. Denielsning "Kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi va takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida kasbiy kompetensiyalarni ijodiy tarzda rivojlantirishdir[5]. Xususan, intervyu orqali testlash usulini ishlab chiqqan[6]. To'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi xodimlarining faoliyati psixologik jihatdan o'rganilgan bo'lib, ularda kasbiy kompetensiyaning ayrim jihatlari ochib berilgan. To'qimachilik va yengil sanoat sohasida ta'lim yo'nalishi fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib o'z ichiga xo'jalik javhalarini, to'qimachilik, yengil sanoat va paxta tozalash sanoatlarida materiallar va maxsulotlar ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnologik mashinalar va jihozlarni yaratish ekspluatatsiya qishi, uslublar va sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga kasbiy kompetensiyaga, mutasasadilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatini vositalari, usullari majmuasini qamrab oladi.

Adabiyot

1. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Перевод с англ. – Москва: Когито-Центр, 2002. – С.42.
2. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64.
3. Xodjaev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: Ped. fan. doktori ... dis. avtoreferati. – Toshkent, 2016. – B.15.
4. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448с.
5. Циткина Ф., Терминология и перевод, К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. С-45
6. Chomsky Noam. Syntactic Structures. Mouton, 1957; Chomsky Noam. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, 1965.